

ZAMONAVIY O‘ZBEK ADABIYOTIDA AYOL OBRAZI STEREOTIPLARINING O‘ZGARISHI (NAZAR ESHONQUL HIKOYALARI MISOLIDA)

Tursunova SHaxzoda
CHDPU magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20594934>

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotida ayol obrazi stereotiplarining o‘zgarishi Nazar Eshonqul hikoyalari misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda “Shamolni tutib bo‘lmaydi” va “Odam” hikoyalaridagi Bayna momo hamda Rahima obrazlari orqali an’anaviy va zamonaviy ayol stereotiplarining badiiy talqini yoritilgan. Ayol obrazining fidokor ona, qasoskor ona, jabrdiyda ayol, tarixiy travma tashuvchisi kabi shakllarda namoyon bo‘lishi psixologik realizm, germenevtik va intertekstual yondashuvlar asosida ochib beriladi. Shuningdek, maqolada ayol obrazlarining ijtimoiy ong, tarixiy xotira, madaniy identitet va gender tenglik bilan bog‘liq jihatlari tahlil qilinadi.

KALIT SO‘ZLAR: Zamonaviy o‘zbek adabiyoti, ayol obrazi, stereotip, gender tenglik, psixologik realizm, germenevtika, intertekstual yondashuv, semiotika, tarixiy travma, arxetip, dekonstruksiya, madaniy identitet, ijtimoiy ong.

ИЗМЕНЕНИЕ СТЕРЕОТИПОВ ЖЕНСКОГО ОБРАЗА В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ (НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ НАЗАРА ЭШОНКУЛА)

Турсунова Шахзода
магистрант ЧГПУ

АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируется изменение стереотипов женского образа в современной узбекской литературе на примере рассказов Назара Эшонкула. В исследовании на основе образов Байна момо и Рахимы в рассказах «Шамолни тутиб бўлмайдди» и «Одам» освещается художественная интерпретация традиционных и современных женских стереотипов. Проявление женского образа в формах самоотверженной матери, мстительной матери, женщины-жертвы, носителя исторической травмы раскрывается на основе психологического реализма, герменевтического и интертекстуального подходов. Также в статье анализируются аспекты женских образов, связанные с общественным сознанием, исторической памятью, культурной идентичностью и гендерным равенством.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: современная узбекская литература, женский образ, стереотип, гендерное равенство, психологический реализм, герменевтика, интертекстуальный подход, семиотика, историческая травма, архетип, деконструкция, культурная идентичность, общественное сознание.

THE TRANSFORMATION OF FEMALE IMAGE STEREOTYPES IN MODERN UZBEK LITERATURE (ON THE EXAMPLE OF NAZAR ESHONQUL'S STORIES)

Tursunova Shaxzoda

Master's student of CHDPU

ABSTRACT: This article analyzes the transformation of female image stereotypes in modern Uzbek literature based on the stories of Nazar Eshonqul. The study highlights the artistic interpretation of traditional and modern female stereotypes through the images of Bayna momo and Rahima in the stories “Shamolni tutib bo‘lmaydi” and “Odam.” The representation of the female image in the forms of a self-sacrificing mother, a vengeful mother, a victimized woman, and a bearer of historical trauma is revealed through psychological realism, hermeneutic, and intertextual approaches. In addition, the article examines aspects of female images related to social consciousness, historical memory, cultural identity, and gender equality.

KEYWORDS: modern Uzbek literature, female image, stereotype, gender equality, psychological realism, hermeneutics, intertextual approach, semiotics, historical trauma, archetype, deconstruction, cultural identity, social consciousness.

Kirish (Introduction). O‘zbek adabiyotida yaratilayotgan hikoyalar zamonaviylik va yangilik xususiyatiga ko‘ra ahamiyatlidir. Bunda ayol obraz sifatida turli xil jabhalarda qalamga olinadi. Obraz tushunchasining badiiy asarda inson, predmet, voqea-hodisalarning umumlashirilgan estetik jihatlar asosida ifodalanishi bejiz emas. Obrazning faqat real shaxs tasviri emas, balki hayvonlar, davr muhiti, ijtimoiy ong bilan bog‘liqlikda amalga oshirilishi ham ahamiyatlidir. Shunga ko‘ra obrazlilikning realistik, psixologik, simvolik va arxetipik kabi turlari mavjud. Bunda hayotiy kuzatuvlarga asoslanish, ichki kechinmalar, ramziy ma‘nolar asosiga quriladigan obrazlar va umuminsoniy model qilib olinadigan obrazlar bilan ifodalanadi. Ayol obrazi esa adabiyotda ko‘pincha ijtimoiy rol sifatida, gender pozitsiya va madaniy stereotiplar bilan ifodalanishi ma‘lum.

“Stereotip” tushunchasi yunoncha “stereos” – barqaror, “typos” – iz, shakl degan ma‘nolarni ifodalaydi. Stereotip bu ijtimoiy ongda mustahkam o‘rnashgan, takrorlanuvchi tasavvur yoki qolip sifatida ifodalanadi. Adabiyotda stereotip obrazni soddalashtiradi, umumiylik hosil qiladi, muayyan ijtimoiy rolni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ba‘zan esa tanqidiy jihatdan qayta talqin qilinish xususiyatiga ega. Shu kabi jihatlar ayol obrazining stereotiplarini tarixan quyidagi shakllarda ifodalash imkonini beradi: o‘zbek hikoyalarida fidokor ona timsoli, sadoqatli ayol timsoli va jabrdiyda ayol timsollari mavjud. Bu kabi jihatlar zamonaviylik xususiyatlaridan ko‘ra eski davr xususiyatiga xos stereotiplardir.

Tadqiqot metodologiyasi (Methods). Mazkur tadqiqotda zamonaviy o‘zbek adabiyotida ayol obrazi stereotiplarining o‘zgarishi Nazar Eshonqul hikoyalari asosida tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tahliliy, germeneytik, intertekstual va semiotik metodlardan foydalanildi. “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hamda “Odam” hikoyalaridagi Bayna momo va Rahima obrazlari gender stereotiplari, tarixiy xotira va psixologik realizm asosida o‘rganildi.

Tadqiqotning nazariy asosini Ahmadaliyevaning “Gender lingvistikasi asoslari” (2019), Xudoyberdiyevaning “Ayol konsepti va uning leksik-semantik tahlili” (2021), Roland Barthesning “Diskurs va ijtimoiy struktura” (1977) asarlari tashkil etdi. Shuningdek, Mahmudovning “Ayol va erkak obrazlarining lingvokulturologik xususiyatlari” (2016), Baxtiyorovning “O‘zbek tilida ayol konseptining tarixiy rivojlanishi va zamonaviy tendensiyalar” (2021) hamda G‘ulomovning “Ayol konsepti: tilda va madaniyatda” (2015) tadqiqotlaridan foydalanildi.

Natijalar (Results). Bugungi kunda esa gender tenglik, ayollarning jamiyatdagi roli hamda ularning jabrdiydalikdan, gunohkorlikdan o'z yo'liga ega, o'z qarashlari va fikriga ega ayol sifatida shakllanishi yangi jihatlaridir. Hozirgi kun hikoyalarida ayollar “jim va itoatkor mavjudot” emas, gunohkor yoki vasvasa timsoli emas, aksincha, erkaklar bilan teng huquq va salohiyatga ega, jamiyatda o'z o'rniga ega inson sifatida tasvirlanadi. “Zamonaviy adabiyotda bu stereotiplarga nisbatan dekonstruksiya amalga oshirilib, murakkab psixologik va ijtimoiy-falsafiy obrazlar bilan ifodalanish xususiyati ko'zga tashlanadi”. [1]

Nazar Eshonqulning “Shamolni tutib bo'lmaydi” nomli hikoyasida Bayna momo obrazi keltirilgan. Bayna momo ushbu asarda eng kuchli ayol obrazi sifatida gavdalanadi. Bayna momo – matonat timsolidir. Bu obrazda er va o'g'li o'limidan so'ng butun umrini nafrat va xotiralar bilan kechiradigan, jamiyatdan uzilgan ayol tasviri markazga olingan. Stereotip turining esa ayol shaxsiyatiga nisbatan qasoskorlik, xotiralarni saqlovchi ayol arxetipi jihatidan qarash mumkin. Nazar Eshonqulning fikrlaricha, Bayna momo obrazi klassik jihatdan ona stereotiplariga yaqin turadi.

“O'zbek ayollarining tarixiy haqiqatlar asosida ifodalanishi bugungi kundagi zamonaviy adabiyotlarga ham ta'sir qilgan”. [2] U endi faqat mehribon ona emas, balki tarixiy travma tashuvchisi, ya'ni Zamon otboqar bilan bo'lgan konfliktni ko'rgan, eri va o'g'li vafotining guvohi bo'lgan, jabrdiydalik xususiyatini o'zida mujassamlashtirgan hamda tarixiy travma tashuvchi inson sifatida gavdalanadi. Ijtimoiy sukutni buzuvchi subyekt sifatida Bayna momoning jamiyatdagi erkaklarga nisbatan aytadigan achchiq, kinoyali va tanqidiy fikrlari ahamiyatlidir. Adabiy jihatdan ushbu o'rinda realistik xususiyat ko'zga tashlanadi. Nazar Eshonqul asarlarida tarixiy diskursni saqlovchi faol subyekt asosan ayollar deb tahlil qilinadi.

Muhokama (Discussion). Ushbu hikoyada talaba qizlar obrazi ham mavjud. Bu epizodik obraz sifatida shahar madaniyatini olib kiruvchi tashqi modernlik xususiyatini ifodalaydi. Biroq Bayna momo o'z qarashlariga ega va tarixiy haqiqatlar bilan kurashuvchi obrazdir. Talaba qizlarga nisbatan stereotip turining modern, lekin begona ayol stereotipi kabi jihatlarini ifodalash mumkin. Aynan ushbu obrazlar orqali Nazar Eshonqul an'anaviy va modern mentalitetning to'qnashuvini yuzaga keltiradi. Bir uyda yashovchi bir ayol va talaba qizlar an'ana hamda modern hayotning to'qnashuvini yuzaga keltirgan. Gender va madaniy identitet muammosi Bayna momo stereotipi bilan umumiylikni tashkil etadi. Ichki tarix – xotira, qizlar esa tashqi dunyo va zamonaviylik kabi xususiyatlarni ifodalashga xizmat qilgan.

Nazar Eshonqulning “Odam” deb nomlangan hikoyasida Rahima obrazi keltirilgan. Rahima obraziga nisbatan hayotiy siklni to'liq bosib o'tgan ayol kabi ta'rif berish mumkin. Ushbu hikoyada kelin, ona, beva, kampir, xotirasini yo'qotgan ayol kabi jihatlar aynan birgina ayol obrazi atrofida umumlashadi. “Stereotip turining fidokor ona, hayotiy sikl va ayol arxetipi kabi jihatlar mavjud”. [3] Ilmiy tahlil jihatidan Rahima obraziga nisbatan oilaviy tizimning markazi, umumlashtiruvchi bo'lak, voqealar rivojining markazida turuvchi obraz sifatida qarash mumkin. Mehnat va sabr timsoli jihatidan u psixologik yemirilish bosqichlariga ega. Uning xotirasida bolalikka qaytish kabi jihatlar ushbu obrazni psixologik realizm va dekonstruktiv narrativ usuli bilan amalga oshirilganini ko'rsatadi. Ushbu asarda Rahima obraziga nisbatan ideal ona stereotipi qo'yiladi. Zaiflashgan xotira subyektiga sekin-sekin, bosqichma-bosqich aylana boshlaydi.

Germenevtik jihatdan ayol obrazini ma'no ochilishi sifatida tahlil qilish mumkin. Germenevtika interpretatsiya nazariyasi bo'lib, matndagi ma'noni tarixiy, psixologik va madaniy kontekstlarda ochib berishga xizmat qiladi. Germenevtik jihatdan hayotiy siklning dastlab kelin, ona, beva, kampir, xotirasini yo'qotgan ayol kabi jihatlar ketma-ketlikda ifodalangan. Rahima

obrazining individual ayol emas, balki o‘zbek an’anaviy jamiyatining ayol hayoti modeli, demak, umumiy ramziylik asosidagi xususiyatni ifodalashi ko‘zga tashlanadi. U vaqt va tarix bosimi ostidagi inson sifatida namoyon bo‘ladi. Tashqi jihatdan oilaviy ayol, ichki jihatdan ijtimoiy mehnat subyekti, chuqur tahliliy jihatdan esa xotira yemirilishi orqali insonning ekzistensial holati ifodalangan.

Stereotip bilan bog‘lanishida fidoiy ona stereotipi va qarilikda bolalikqa qaytuvchi ayol arxetipi mavjud. “Shamolni tutib bo‘lmaydi” nomli hikoyada travma – er va o‘g‘ilning o‘limi – psixologik jihatdan Bayna momoning shaxsiyati shakllanishida o‘z ifodasini topgan. Germenevtik jihatdan u individual ayol emas, balki tarixiy jarohatning tirik metaforasi sifatida ifodalanadi. Yuzaki jihatdan u kampir, chuqur tahliliy jihatdan esa tarixiy zo‘ravonlikka qarshi xotira subyektidir.

Qasoskor ona obrazi an’anaviy stereotipning buzilish holatini yuzaga keltirgan. Bunga sabab – hikoyalarda dastlab ayollarga nisbatan munislik, mehribonlik, fidoiylik kabi jihatlar singdirilgan bo‘lsa, zamonaviy tahlil usullarida ayollar shaxsiyatiga oid qasoskorlik xususiyatlari ham ifodalanmoqda. Bu esa zamonaviy adabiyotga xos xususiyatlarning muhim elementlaridan biridir. “Intertekstual yondashuv jihatidan bir matn ichida boshqa matnlarning, madaniy kodlarning yashirin muloqoti ham mavjud”. [4] Rahima va Bayna momo obrazlarining interteksti – bu ikki obraz o‘rtasida kuchli intertekstual qarama-qarshilik mavjudligidir. Elementlar ayollik modeli, oilaviylik, ijtimoiylik, izolyatsiya va qarshilik kabi jihatlar atrofida birlashadi. Rahima obrazida emotsiya, sabr va adaptatsiya tushunchalari mavjud bo‘lsa, Bayna momoda psixologik travma va nafrat tushunchalari ustuvorlik qiladi.

Jamiyat bilan o‘zaro aloqalarning amalga oshirilishi Rahima obrazi bilan bog‘liqdir. Jamiyatdan uzilish kategoriyasi esa Bayna momo obrazi bilan ifodalangan. Stereotip jihatdan Rahima obrazi fidoiy ona, Bayna momo esa qasoskor ona timsolidir. Intertekstual xulosaviylik asosida Rahima obraziga nisbatan “ijtimoiy integratsiya ayoli” jihatini berish mumkin. Bayna momoga nisbatan esa “ijtimoiy inkor ayoli” degan tahlillar ikki qarama-qarshi modelni yaratadi.

Shuningdek, semiotik jihatdan ushbu hikoyalarda Shukur Xolmirzayevning o‘ziga xos mahoratini sezish mumkin. Bayna momo semiotikasida uy – qo‘rg‘on, tarix, xotira va yopiq sistemani ifodalaydi. Ustunlar esa tayanch, lekin yolg‘izlik asosiga qurilgan ramziylik sifatida Bayna momoni ifodalaydi. Qamchi predmeti zo‘ravonlik va tarixiy adolatsizlikning belgisi hisoblanadi. Sandiq – yashirin xotira, barmoqlar esa detal va qasosning dalili sifatida semiotik jihatdan tahlil qilinadi. Bu yerda xotira, zo‘ravonlik va qarshilik tizimi ifodalangan.

Rahima obrazining semiotikasida chelak va suv hayotning uzluksizligi hamda davomiyligiga urg‘u beradi. Uy va oila esa ijtimoiy rolni belgilaydi. Bu rolda ayol shaxsiyatining jamiyatda tutgan ahamiyati qalamga olinadi. Xotira buzilishi vaqtning yemirilishiga urg‘u beradi. Vasiyat esa avlodlardan avlodlarga o‘tish va hayotda hech kim abadiy emasligiga ishora qiladi. Semiotik kodlarning hayot sikli, mehnat va unutilish kabi tushunchalar bilan ifodalanganini sezish mumkin.

Talaba qizlar belgi jihatidan ochiq kiyim – modernlik xususiyati, kir yuvish va madaniy to‘qnashuvlar esa begonalik hamda lokal jamiyatdan uzilish semiotik kodlarini yuzaga keltiradi. Bunda “modernlik, begonalik va madaniy dissonans tushunchalari ahamiyatlidir” [5] deyish mumkin.

Xulosa (Conclusion). Mazkur tadqiqot natijalariga ko‘ra, zamonaviy o‘zbek adabiyotida, xususan Nazar Eshonqul hikoyalarda ayol obrazi stereotiplari sezilarli darajada transformatsiyaga uchragan. An’anaviy fidokor ona va jabrdiyda ayol stereotiplari o‘rniga psixologik murakkablikka ega, tarixiy travma tashuvchi va ijtimoiy diskursni shakllantiruvchi obrazlar paydo bo‘lgan.

“Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasidagi Bayna momo obrazi qasoskor ona va tarixiy xotira subyekti sifatida jamiyatdan ajralgan, biroq ijtimoiy sukutni buzuvchi kuchli psixologik obrazni ifodalaydi. “Odam” hikoyasidagi Rahima obrazi esa hayotiy siklni to‘liq aks ettiruvchi, oilaviy va ijtimoiy tizim markazida turuvchi, psixologik yemirilish bosqichlari orqali ekzistensial holatni namoyon etuvchi ayol sifatida talqin qilinadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Mirzayeva M. “Zamoaviy o‘zbek adabiyotida ayol obrazi poetikasi”. Adabiyotshunoslik jurnali, 2022.
2. Ahmedova N. “O‘zbek adabiyotida ayol obrazining o‘zgarish tendensiyalari”. – O‘ZMU Ilmiy axboroti, 2021.
3. Qosimova D. O‘zbek adabiyotida ayol obrazlari evolyutsiyasi. – Toshkent: Fan, 2010.
4. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. – 548 b.
5. Y. Eshmatova. Istiqlol davri o‘zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini. PhD dissertatsiyasi. – B. 4.